

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**



«TASDIQLAYMAN»

Direktorlar kengashi raisi

L.X.Musadjanova

2025-y

« 5 »

03

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

NEFROLOGIYA VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(144 - kredit)

Toshkent 2025 yil.

TUZUVCHILAR:

Z.H. G'ulomova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

X.A.Abdullayeva

Respublika Ihtisoslashgan nefrologiya va
buyrak transplantatsiyasi ilmiy amaliy
tibbiyot markazi vrach -nefrologi

TAQRIZCHILAR:

M.X.To'htamishev

Respublika Ihtisoslashgan
Urologiya Ilmiy amaliy Tibbiyot
Markazi dotsenti t.f.n

Z.Z. Imomova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,
tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

1.Kirish.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saklash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O'quv dasturi "Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi" yo'nalishining namunaviy o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan.

Dastur fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning xar tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida "Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarga sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan

profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'riy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiya ning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, bolalar orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- buyrak va siydik yo'llarining yoshga bog'liq hususiyatlari, nefrologik bemorlar semiotikasi va simptomalogiyasini o'rgatish;
- buyrak va siydik yo'llari infeksiyasini oldini olishda hamshira chora tadbirlari ko'nikmalarini yangilash;
- nasliy nefropatiya, buyrak va siydik yo'llari tug'ma nuqsonlari ularni erta aniqlashning zamonaviy diagnostika usullari haqida ma'lumotlar berish;
- buyrak polikistozi va tug'ma tubulopatiya tashxisli bemorlarda hamshiralik parvarishi ko'nikmalarini takomillashtirish;
- diabetik nefropatiyaning asosiy klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari va klinik belgilarga xos hamshiralik parvarishini o'rgatish;
- *homiladorlik davrida urodinamikasi buzilishlari, homiladorlik nefropatiyasining klinik belgilari, erta tashxisning zamonaviy usullari va hamshiralik parvarishini uyushtirish;*
- o'tkir glomerulonefrit, o'tkir interstitsial nefritlarda zamonaviy tashxis usullari va hamshiralik parvarishi borasida bilim va ko'nikmalarni yangilash;
- suniy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullar (gemodializ, plazmoferez, gemofiltratsiya, gemodiafiltratsiya) va ularni amalga oshirishda hamshiralik parvarishini ahamiyati haqida ma'lumotlar berish;
- gemodializ oluvchi bemorlarda qon tomirga hosil qilingan yo'llarni (fistula, shunt) hamshiralik parvarishining o'ziga xos ko'nikmalarini shakllantirish;
- gemodializ vaqtida va undan keyingi davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarda shoshilinch birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- buyrak transplantatsiyasi operatsiyasiga bemorlarni tayyorlash va operatsiyadan keyingi hamshiralik parvarishi ko'nikmalarini takomillashtirish;
- buyrak yetishmovchiligi bor bemorlarni dispanser nazorati va reabilitatsiyasida hamshiralik faoliyatini amalga oshirish;

- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalari nefrologiya va gemodializ bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi xujjati* bulgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy me'yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- o'rta tibbiyot xodimining xuquqiy ma'suliyatlari, bemor xuquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy xayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish;
- buyrak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordamni tashkil etishdagi direktiv xujjatlarni o'rganish, me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilish;
- aholiga buyrak kasalliklarini oldini olish, diagnostika, davolash yordam ko'rsatishda hamshiraning roli haqida ma'lumotga ega bo'lishlari;
- buyrak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni tibbiy ko'riklarda qatnashish, fiziologik o'zgarishlarni bilish, funksional sinamalarni o'tkazish tartibi va antropometrik o'lchovlarni olish;
- zamonaviy tashxislash usullari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- aholi o'rtasida va bemorlarga dispanser xizmatini ko'rsatishda asosiy profilaktik ishlarni olib borish;
- siydik ishlab chiqarish a'zo xolatini baholash, turli hil tahlillarni amalga oshirish tartib-qoidalarini bilishi;
- dori vositalarini yuborish xususiyatini bilishlari;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarini amalga oshirish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, "O'zbekiston Respublikasi aholisiga nefrologiya va gemodializ yordami ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3846 son qarorini ijrosi, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit xaftada, 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so‘ng

: o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so‘ng

takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, ular orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikklamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish qobiliyatlari yangilanadi;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o‘rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko‘nikmalarini

- mustahkamlash;
- buyrak kasalliklarida yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislashga tayyorlash, yordam ko'rsatish, hamshira tashxisi va parvarishi to'g'risida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;
 - zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
 - suniy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullar (gemodializ, plazmoferez, gemofiltratsiya, gemodiafiltratsiya) bilan ishlash ko'nikmalari yangilanadi;
 - zamonaviy prenatal diagnostika usullari bilan tanishadilar;
 - buyrak transplantatsiyasi va bemorlarni operatsiyadan oldingi hamshiralik parvarishi ko'nikmalari yangilanadi;
 - hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1“NEFROLOGIYA VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI” kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari			Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
1.	Kasbiy rivojlantirish moduli.	32	16	16		
1.1	Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2.	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		

2.1.	Modul: O'zbekistonda nefrologiya va gemodializda tibbiy yordamini tashkil qilish. SSVning nefrologiya soxasidagi qaror va buyruqlari. Buyrak va siydik yo'llarining yoshga bog'liq xususiyatlari. Nefrologik bemorlar simptomalogiyasi.	6	4	2		
2.2.	Modul: Buyrak va siydik yo'llari infeksiyasini oldini olishda hamshira yordami. Zamonaviy tekshiruv usullari, kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
2.3	Modul: Diabetik nefropatiyaning asosiy klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari, klinik belgilarga xos hamshiralik parvarishi.	6	4	2		
2.4	Modul: Nasliy nefropatiya, buyrak va siydik yo'llari tug'ma nuqsonlari, ularni erta aniqlashning zamonaviy diagnostika usullari. Buyrak polikistozi va tug'ma tubulopatiya tashxisli bemorlarda hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.5	Modul: Homiladorlik davrida urodinamik buzilishlar. Homiladorlik nefropatiyasining klinik belgilari, erta tashxislash, zamonaviy diagnostika usullari va hamshiralik parvarishining ahamiyati.	6	2	4		
2.6	Modul: Siydik yo'llari rivojlanish anomaliyalarining zamonaviy prenatal diagnostika usullari.	6	2	4		
2.7	. Modul: Buyraklarning o'tkir va surunkali yallig'lanish kasalliklari. Zamonaviy tekshiruv usullari va tavsiyalar, hamshiralik parvarishining ahamiyati.	14	6	8		
2.8	Modul:Buyrak tosh kasalliklari sabablari,klinik kechishi,zamonaviy tekshirish va davolash usullari xamshiralik parvarishi	6	2	4		
2.9	Modul: O'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi turlari, sabablari, zamonaviy diagnostika va davolashda hamshiralik parvarishining ahamiyati.	12	4	8		
2.10	Modul: Suniy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullar. (gemodializ, plazmoferez, gemofiltratsiya, gemodiafiltratsiya) Gemodializda ishtirok etuvchi hamshiraning asosiy vazifalari	24	10	14		

2.11	Modul: Buyrak transplantatsiyasi va bemorlarni operatsiyadan oldingi hamshiralik parvarishi. Buyrak yetishmovchiligi bor bemorlarni dispanser nazorati va reabilitatsiyasida hamshiraning vazifasi	6	4	2		
2.12.	Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
4.0	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“NEFROLOGIYA VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI” kursi o'quv modullarining mazmuni

1.1.Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari.Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati.Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari.Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash.Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari hususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

1.3.Modul:Sanitariya epidemiologik tartib me'yorlari va infeksiyon nazorat.Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda hamshiralarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish.Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar,

OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalalanish tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5.Modul:Sog'lom turmush asoslari,to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riknlarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul:O'zbekistonda nefrologiya va gemodializda tibbiy yordamini tashkil qilish. SSVning nefrologiya soxasidagi qaror va buyruqlari. Buyrak va siydik yo'llarining yoshga bog'liq xususiyatlari. Nefrologik bemorlar simptomalogiyasi

O'zbekistondagi nefrologiya va gemodializda tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish. Nefrologik va gemodializ tibbiy muassasalarning tuzilishi, turlari va ularning ish faoliyatini Nefrologiya bo'limlarda faoliyat olib borayotgan hamshiralarning majburiyatlarini Bemorlar, tibbiy xona jihozlar va hujjatlarni vrach qabuliga tayyorlash.Buyrak va siydik yo'llarining yoshga bog'liq xususiyatlari, nefrologik bemorlar simptomalogiyasi.Buyrak va siydik yo'llarining o'ziga xos xususiyatlari. Peshob tahlilining me'riy ko'rsatkichlari. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishlash va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

2.2. Modul: Modul: Buyrak va siydik yo'llari infeksiyasini oldini olishda hamshira yordami. Zamonaviy tekshiruv usullari, kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko'rsatish

Buyrak va siydik yo'llari infeksiyasini oldini olishda hamshira chora-tadbirlari. Siydik yo'llari infeksiya bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik yordamini ko'rsatishni o'rganish. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarining klinik belgilarini bilish. Zamonaviy davolash usullari va ularda qo'llaniladigan asbob — uskunalar, tibbiy muolajalar hamda yangi dori vositalarini ishlatish. Nefrologik kasalliklarga tashhis qo'yish uchun qon umumiy tahlili, qonda mochevina, kreatinin, umumiy oqsil va uning fraksiyalari, xolesterin va glyukoza miqdorini, natriy va kaliy miqdorini aniqlash uchun qon olishni, shuningdek peshob umumiy analizi va turli peshob

sinamalarini, peshob bakteriologik tekshiruvini o'tkazish. Buyrak kasalliklarini tashhislashda qo'llaniladigan zamonaviy usullarga bemorlarni tayyorlash.(MSKT ekskretor urografiya, sistografiya, antegrad pielografiya usuli)

2.3.Modul: Modul: Diabetik nefropatiyaning asosiy klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari, klinik belgilarga xos hamshiralik parvarishi.

Buyrak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolash va tashhislash bo'yicha qo'llanilayotgan yangi zamonaviy usullarni o'rganish va tatbiq etishda hamshiraning o'rni. Buyrak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik parvarishi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinikasini oldini olish va tez yordam ko'rsatish chora tadbirlari. Nasliy nefropatiyalar, buyrak polikistozlari, bolalarda va kattalarda uchraydigan tug'ma tubulopatiyalarda hamshiralik parvarishi. Dispanserizatsiya va sanitar oqartuv ishlarini olib borish.. Birlamchi va ikkilamchi tubulopatiyalar kelib chiqish sabablarini, simptomlari, tubulopatiyalarning asoratlari va profilaktikasi. Buyrak polikistozi va tug'ma tubulopatiya tashxisli bemorlarda hamshiralik parvarishi.

2.4.Modul: : Nasliy nefropatiya, buyrak va siydik yo'llari tug'ma nuqsonlari, ularni erta aniqlashning zamonaviy diagnostika usullari. Buyrak polikistozi va tug'ma tubulopatiya tashxisli bemorlarda hamshiralik parvarishi.

Diabetik nefropatiyaning etiologiyasi, asosiy klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari. Klinik belgilarga xos hamshiralik parvarishi. Diabetik nefropatiya va qandsiz diabet kasalliklarining tashxislash va davolashda zamonaviy hamshiralik yondashuvi. Buyrak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni parvarishlash, ularni davolash va tashhislash bo'yicha qo'llanilayotgan yangi zamonaviy texnologiyalar.

2.5.Modul: Homiladorlik davrida urodinamik buzilishlar. Homiladorlik nefropatiyasining klinik belgilari, erta tashxislash, zamonaviy diagnostika usullari va hamshiralik parvarishining ahamiyati.

Homiladorlik nefropatiyasi sabablari,klinik belgilari,asoratlari. Bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda bo'lganda etika masalalarini qo'llash. Og'riqqa, bemorni umumiy ahvoliga baho berish, hayotiy muhim ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish. Homilador ayolning oila a'zolariga bemor parvarishi bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatish. Homiladorlik nefropatiyasini erta tashxisning zamonaviy usullari. Preeklampsiya va eklampsiyada birinchi yordam ko'rsatish. Homilador ayolni o'z vaqtida dispanser hisobiga olish,ular bilan suhbatlar o'tkazish, muntazam qon bosimni va peshob tahlilini tekshirib turish. Zamonaviy tekshiruvlarga laborator-diagnostik tekshiruvlarga bemorlarni tayyorlash.

2.6.Modul:Siydik yo'llari rivojlanish anomaliyalarining zamonaviy prenatal diagnostika usullari

Siydik yullarida tug'ma nuqsonlari. Siydik chiqaruv a'zolari anomaliyalari tasnifi. Siydik yullarida tugma nuksonlar (anomaliya) bolalarda uchrashi. Siydik nayi joylashish anomaliyasi. Bemorlarni davolashdagi samarali natijalari to'g'risida ilmiy asosda ma'lumotlar berish. Buyrak tug'ma nuqsonlari. Buyrakni joylashishi anomaliyalari. Buyraklarni o'zaro munosabati anomaliyasi buyrakni ikkilanishi tug'ma nuqson sifatida bir tomonli va ikki tomonli bulishi. Buyrak va siydik yo'llari tug'ma nuqsoni bor bemorlar bilan ishlash jarayonida hamshira ishiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Zamonaviy prenatal diagnostika usullari.

2.7.Modul:. Buyraklarning o'tkir va surunkali yallig'lanish kasalliklari. Zamonaviy tekshiruv usullari va tavsiyalar, hamshiralik parvarishining ahamiyati.

Buyraklarning o'tkir yallig'lanish kasalliklari, etiologiyasi, klinik belgilari. Glomerulonefritlar haqida tushuncha. O'tkir osti havfli glomerulonefrit. Surunkali buyrak yetishmovchiligida bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishda va tashxislashda zamonaviy tekshiruv usullaridan foydalanish. Ultratovush va kompyuterli tomografiya, radioizotop yordamida tashxis qo'yish usullari. Glomerulonefritlarda tavsiya etiladigan parhezlar. Nefrologik kasalligi bilan kasallangan bemorlarni to'g'ri ovqatlantirish va gigienasiga e'tibor berish. O'tkir interstitsial nefrit etiologiyasi, zamonaviy tekshirish usullari va hamshiralik parvarishining ahamiyati. Buyraklar interstitsial to'qimasi va buyrak kanalchalari noinfeksion (abakterial) yallig'lanishi. Kasallikning o'tkir yoki surunkali shakllari.Urologiya soxasi bo'yicha kasallikning kelib chikish sabablari, klinikasi, parvarish usullari, va ularni bartaraf qilish chora tadbirlari. Dietologiya asoslari bilan tanishtirish. Urologik yordamni tashkil etish. Bemorlarni narkozga tayyorlash va premedikatsiya o'tkazish. Og'riqsizlantirish usullari va uning asoratlarini oldini olish. Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga va operatsiyaga tayyorlash. Urologik operatsiyalar turlari. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni parvarish qilish. Urologik bemorlar uchun tibbiy xujjatlarni to'ldirish.

2.8.Modul Buyrak tosh kasalliklari sabablari,klinik kechishi,zamonaviy tekshirish va davolash usullari xamshiralik parvarishi.

O'tkir buyrak yetishmovchiligi, turlari,klinikasi va zamonaviy diagnostikasi. Kasallikning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish chora tadbirlari, profilaktikasi, dietologiya asoslari.Urologik asboblarni zararsizlantirishga tayyorlash.Turli sterilizatsiya usullarining bajarish koidasi va undan foydalanish tartib qoidalari. Bemorlarni operatsiyaga tayyorlash. Sutkali diurezni o'lchash.Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash. Hayotga tahdid soluvchi holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.Urologik kasallar uchun tibbiy xujjatlarni to'ldirish.Surunkali buyrak yetishmovchiligining semiotikasi, zamonaviy diagnostika va davolash chora- tadbirlari.Urologiya sohasi bo'yicha kasallikning

kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish chora- tadbirlari, kasallik belgilari, parvarish usullari, profilaktikasi, dietologiya asoslari. Urologik kasalliklar profilaktikasida hamshiraning o'z roli. Bemorlar reabilitatsiyasi va dispanserizatsiyasi va ularning ahamiyati. Surunkali infeksiya o'choqlari sanatsiyasi.

2.9.Modul: Modul: O'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi turlari, sabablari, zamonaviy diagnostika va davolashda hamshiralik parvarishining ahamiyati.

O'tkir buyrak yetishmovchiligi, turlari, klinikasi va zamonaviy diagnostikasi. Kasallikning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish chora tadbirlari, profilaktikasi, dietologiya asoslari. Urologik asboblarni zararsizlantirishga tayyorlash. Turli sterilizatsiya usullarining bajarish koidasi va undan foydalanish tartib qoidalari. Bemorlarni operatsiyaga tayyorlash. Sutkali diurezni o'lchash. Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash. Hayotga tahdid soluvchi holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Urologik kasallar uchun tibbiy xujjatlarni to'ldirish. Surunkali buyrak yetishmovchiligining semiotikasi, zamonaviy diagnostika va davolash chora- tadbirlari. Urologiya sohasi bo'yicha kasallikning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish chora- tadbirlari, kasallik belgilari, parvarish usullari, profilaktikasi, dietologiya asoslari. Urologik kasalliklar profilaktikasida hamshiraning o'z roli. Bemorlar reabilitatsiyasi va dispanserizatsiyasi va ularning ahamiyati. Surunkali infeksiya o'choqlari sanatsiyasi.

2.10.Modul: Sun'iy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullar. (gemodializ, plazmoferez, gemofiltratsiya, gemodiafiltratsiya) Gemodializda ishtirok etuvchi hamshiraning asosiy vazifalari.

Sun'iy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullar. Gemodializning respublikamiz hamda jahon miqyosidagi yutuqlari, uning sog'liqni saqlash sohasidagi salmoqli o'z roli, buyrak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni davolashdagi samarali natijalari. Gemodializ uchun mo'ljallangan sun'iy buyrak apparatlarini ishlash prinsiplari va gemodializ uchun suv tozalash stansiyalarning ish jarayonida hamshiraning vazifalari. Qonning tarkibi, uning asosiy fizik-kimyoviy xossasi va vazifalari. Donor qoni, qonservatsiyalangan eritmalarni tayyorlash. Bemorlarga qon, qon xujayra komponentlari va oqsil fraksiyalarini qo'llanishi. Qon va qon komponentlarini, oqsil fraksiyalarini tayyorlash texnologiyasi. Gemodializda ishtirok etuvchi hamshiraning asosiy vazifalari. Bemorlarni gemodializ muolajasiga tayyorlash, muolaja vaqtida bemorlarni parvarishlash. Gemodializ apparati bilan ishlash qoidalari. Gemodializ muolajasidan keyin apparatlarni dezenfeksiyalash va ularni navbatdagi gemodializ uchun tayyorlash. Gemodializ vaqtida kuzatiladigan asoratlarni oldini olish. Gemodializ oluvchi bemorlarda qon tomirga hosil qilingan yo'llarni (fistula, shunt) hamshiralik parvarishining o'ziga xos va muhim jihatlari. Arteriya –vena fistulasi haqida tushuncha. Arteriya –vena fistulasi bilan ishlash qoidalari, yuzaga kelishi mumkin asoratlari va shoshilinch yordam ko'rsatish. Gemodializ muolajasi vaqtidagi

gipertoniya, gipotoniya, talvasa hurujlari,sovqotish,isitmalashlar, gemotransfuzion shokda birinchi yordam ko'rsatish.Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni monitoringini olib borish. Tibbiy xujjatlar va hisob-kitob xujjatlarini olib borish

2.11.Modul:Buyrak transplantatsiyasi va bemorlarni operatsiyadan oldingi hamshiralik parvarishi. Buyrak yetishmovchiligi bor bemorlarni dispanser nazorati va reabilitatsiyasida hamshiraning vazifasi.

O'zbekiston Respublikasida yaqin qarindoshlik transplantatsiyasini tashkil qilish.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining "Inson organlari, to'qimalari va (yoki) hujayralarini transplantatsiya qilish haqida"gi 2018 yil 18 iyundagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 oktabrdagi 859-sonli"Yaqin qarindoshlar orasida buyrak va (yoki)jigar bo'lagini trasplantatsiya qilish tartibi to'g'risidagi"vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqidagi qarorlarning mohiyati. Buyrak va jigar transplantatsiyasini amalga oshirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar.Donor va resipient haqida tushuncha.Yaqin qarindoshlar orasida buyrak va (yoki) jigar bo'lagini transplantatsiya qilish tartibi va uni bajarishga ko'rsatma va moneliklar. Donor va resipientning huquq va majburiyatlari. Operatsiyaga donor va resipientlarni ruhan tayyorlash. Transplantatsiyaga bemorlarni tayyorlash.Transplantatsiyadan keyin bemorlar parvarishida hamshiraning o'rnini va vazifalari.Surunkali buyrak va jigar kasalliklarining terminal bosqichidagi bemorlarni yuqori texnologiyali ixtisoslashgan tibbiy yordam bilan ta'minlash. Transplantatsiyadan keyingi davrda bemorlarning ijtimoiy himoyasi.Transplantatsiyadan keyingi bemorlar parvarishida hamshiraning roli va vazifalari.

2.11.Modul:Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi.Tibbiy saralash (triaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash,asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish.Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish: O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda ,suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish. Hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish.Terminal holatlar,klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiyligni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algortmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy kunikmalarni mustaxkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom va boshqa jihozlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. F. Akilov, A. Gadoev "Buyrak kasalliklari" Toshkent "Turon zamin ziyo" 2016y.

2. Ye. Donald. Djon Ye "Nefrologiya" Moskva 2011 g.

3. Gurevich, A. "Dializnaya pomosh: organizatsii i finansirovanie" Moskva 2011 g

4. Muxin, N. A. Meditsina, osnovannaya na dokazatelstvax "Sovershenstvovanie nefrologicheskoy pomoshi v regione na osnove monitoringa zabolevaemosti i evolyusii bolezney pochk u detey" Moskva 2017 g.

5. A. Zemchenkov "Tempi progressirovaniya xronicheskoy bolezni pochk i svoevremennost nachala dializa" Klinicheskie potrebnosti nefrologii v laboratornix issledovaniyax Moskva 2014 g.

6. Bondar, I. A. "Lechenie saxarnogo diabeta u bolnix, naxodyashixsya na dializnoy terapii" Moskva 2011g.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

<http://ros-medic.ru>

www.adti.uz

<http://www.medlinks.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar,o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.